



FAN VA TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH, TA'LIMDA ZAMONAVIY INNOVATSION AXBOROT-TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Rustamova Zarina Baxodirovna
BUXDPI Tillar fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab va oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish va shu tizim doirasida yaratilgan yangi platformalar hamda ularning afzalliklari ko'rsatib berilgan. Prezidentimizning ta'lim tizimini innovatsiyalashtirishda olib borayotgan targ'ibot ishlari va uning natijalari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Texnologiya , "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi , Kundalik.com , Hemis dasturi , Unilibrary.uz , "Raqamli universitet" , Baholash markazi, Ilmiy axborotlar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarni raqamlashtirish, yangi texnika va texnologilarni tatbiq qilish, aholining shu xizmatlardan foydalanish savodxonligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Sohalarni raqamlashtirish va undan foydalanish insonning ham vaqtini ham mablag'ini tejamoqda. Mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan 2020-yil 5-oktabedagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" loyihasiga hamohang barcha turdagi ta'lim tizimlarini raqamlashtirish keng yo'lga qo'yilgan.

Raqamlashtirish ta'lim va boshqaruv uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish, o'zaro hamkorlik va muloqot qilishni osonlashtirdi. Raqamlashtirishning afzalliklari samaradorlikni oshirish, o'quvchilarni faolligini oshirish, shaxsga qaratilgan ta'lim va yangi o'qitish usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish universitetlarni, o'quv dasturlarini, professor-o'qituvchilarni, xodimlarni va resurslarni boshqarishni osonlashtiradi. O'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2024-yilda birinchi 70 talikka, 2025 yilda 60 talikka va 2030-yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi.



“Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko‘rib chiqish va raqamli ta‘limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Ushbu farmonda ta‘lim sohasida raqamli ko‘nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

2020-yil 1-sentabrga qadar barcha umumta‘lim maktablarida jurnal va o‘quvchilarning kundaliklarini qog‘oz shaklida yuritishni bekor qilish hamda ularni elektron tarzda yuritishga mo‘ljallangan yagona axborot tizimini ishga tushirish asosiy vazifalardan biri etib belgilangan edi. Ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida **Kundalik.com** platformasi ishlab chiqildi va qisqa vaqt maboynida bir qancha mavjud pedagogik muammolarning bartaraf etilishiga zamin yaratildi. Kundalik.com platformasida o‘quvchilar uy vazifalari, dars jadvali, baholari haqida doimiy ravishda ma‘lumot olishlari mumkin. Shuningdek, onlayn test va masofaviy ta‘limdan foydalanish imkoniyati ham mavjud. O‘qituvchilar esa jurnal, dars jadvali, o‘quv rejasidan elektron tarzda foydalanishi, virtual konferensiyani amalga oshirib, e‘lonlarni ham qulay tartibda berib borishi, o‘z o‘quvchilari va ularning ota-onalari bilan operativ muloqotni amalga oshirishlari mumkin. Ushbu raqamli platforma o‘qituvchilarga ortiqcha qog‘oz hujjatlarini to‘ldirishga vaqt sarflamaslikka va vaqtini ko‘proq ta‘lim jarayoniga ajratishga, o‘qitish ishlariga ijodiy yondashishga yordam beradi. Tizimda qo‘shimcha foydali funksiyalar, xususan zarurat bo‘lganida masofadan turib shug‘ullanish imkoniyati ham mavjud.

Umuman olganda, milliy loyiha muvofiqlashtirishni nazarda tutadi va ta‘lim imkoniyatlaridan samarali foydalanishlari uchun o‘quvchilarga sharoit yaratish hamda sifatli ta‘lim olishdan teng foydalanishni ta‘minlaydi. Raqamli maktab elektron ta‘lim tizimiga bepul kirishni nazarda tutadi va har bir o‘quvchining qobiliyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini individuallashtirishga keng imkoniyatlarni yaratadi. Xozirda elektron kontent hajmi ortib bormoqda – darsliklar raqamlashtirilmoqda, onlayn kurslar ishlab chiqilmoqda.

Elektron ta‘lim mustaqil ravishda bilimga ega bo‘lish, katta hajmdagi ma‘lumotlar oqimi bo‘ylab harakatlanish uchun ham ko‘proq imkoniyatlar beradi. Bunda o‘qituvchining roli bilim tarjimonidan o‘quvchini eng individual ta‘lim yo‘li bo‘ylab boshqaradigan murabbiy vazifasiga aylanadi. O‘qituvchining “Men hamma narsani bilaman, men qilganimni qil” tamoyili o‘rniga yangi – “Men buni o‘zingiz qilishingizga yordam beraman” paradigma taklif etiladi. Bugungi kunda raqamli ta‘limning mamlakatimiz ta‘lim tizimida o‘rni beqiyos bo‘lib, bunda o‘quvchilarning



fanni o'zlashtirishlari bilan bir qatorda, ular bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, fanlarni qanday o'rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida o'quvchilarning mustaqil o'rganish, shaxsiy o'rganishga moslashish va o'z ustida ishlash kabi qobiliyatlari yanayam rivojlanadi. Dars jarayonlarini raqamli kontentda jonli olib borish va darslarda interfaol topshiriqlarni berish o'quvchilarning o'zlari qiziqqan sohada kompetensiyalarini rivojlanishiga ham yordam beradi.

Oliy ta'lim tizimida "Raqamli universitet" loyihasi davom etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog,,oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish maqsadida Raqamli universitet loyihasi doirasida "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (**HEMIS** - Higher Education Management Information Systems) ishlab chiqildi. Ushbu axborot tizimi «Ma'muriy boshqaruv», «O'quv jarayoni», «Ilmiy faoliyat» va «Moliyaviy boshqaruv va statistika» axborot tizimlarini o'z ichiga oladi.

HEMIS platformasini joriy etishdan maqsad:

- OTM faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimida o,,quv, ilmiy, ma'muriy va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish;
- oliy ta'lim tizimida byurokratik to'siqlar yuzaga kelishini oldini olish va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish;
- OTM, talaba, va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida uzviylikni ta'minlash;
- boshqaruv jarayonlari uchun sarf qilinadigan vaqtni qisqartirish va mehnat samaradorligini oshirish;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilish;
- tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va tezlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'grisida" PQ-60-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari uchun vazirlik huzurida yagona "Elektron kutubxona"(unilibrary.uz)platformasi yaratildi.

"Elektron kutubxona" platformasini yaratilishida ilgar surilgan maqsadlar:

✓ Oliy ta'lim sohasida o'quv va ilmiy axborotlar bilan ta'minlash uchun elektron kutubxona axborot tizimi ishlab chiqish va joriy etish;



✓ Oliy ta'lim muassasalari kutubxona fondida saqlanayotgan darsliklar, monografiyalar va dissertatsiyalarning elektron malumotlar bazasini tashkil etish va yuritish;

✓ An'anaviy va masofaviy ta'limning barcha ishtirokchilari uchun yagona ta'lim resurslarini yaratish;

✓ Barcha davlat oliy ta'lim muassasalarining kutubxona fondidagi o'quv adabiyotlarining to'liq elektron shaklga o'tkazilishini ta'minlash.

Bu esa, o'z navbatida, fondan erkin foydalanishni yo'lga qo'yib, keng jamoatchilik orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Hozirda raqamli ta'lim ta'lim tizimlarimizda o'rni beqiyos bo'lib, bunda o'quvchilar va talabalarimizning fanni o'zlashtira olishi emas, balki ular bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, fanni qanday o'rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'rganishi, shaxsiy o'rganishga moslashishi va o'zini ustida ishlashi kabi qobiliyatlari rivojlanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-sonli "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 997-sonli qarori.
3. ОЛИЙ ТАЪЛИМДА АХБОРОТ-КУТУБХОНА ХИЗМАТИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ: UNILIBRARY.UZ ЭЛЕКТРОН КУТУБХОНА ПЛАТФОРМАСИ. Методик қўлланма.
4. R. Tursunov "Ta'limni raqamlashtirish jarayonlarida ta'lim subyektlariga qo'yiladigan pedagogik talablar". Toshkent.: 2021 yil.
5. www.kundalik.com/news